

## XALQARO SANKSIYALAR SHAROITIDA EKSPORT OPERATSIYALARINI HUQUQIY HIMOYA QILISH

**Keldiyorov Shohruh Ilyos o'g'li**

**“Ziraat Bank Uzbekistan” AJ Ichki Nazorat boshqarmasi**

**Sanksiyaviy komplaens nazorat sektori bosh mutaxassi**

**[sh.keldiyorov@mail.ru](mailto:sh.keldiyorov@mail.ru)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15956704>**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi xalqaro iqtisodiy sanksiyalar sharoitida O'zbekiston eksport faoliyatining barqarorligini ta'minlash, sanksiyalar bilan bog'liq xavf-xatarlarni huquqiy mexanizmlar orqali boshqarish zarurati tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor eksport bitimlarida yuridik himoya vositalaridan foydalanish, kontragent tekshiruvlari, bank kafolatlari, arbitraj muhofazasi va davlat tomonidan ko'rsatiladigan huquqiy yordam masalalariga qaratilgan. Muallif amaldagi xalqaro huquq me'yorlari, O'zbekiston qonunchiligi va zamonaviy compliance yondashuvlar asosida aniq taklif va strategiyalarni ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro sanksiyalar, eksport bitimi, huquqiy himoya, tashqi savdo xavfi, compliance, kontragent tekshiruvi, bank kafolati, arbitraj.

So'nggi yillarda jahon miqyosida geosiyosiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi, qurolli ziddiyatlar va global kuch markazlari o'rtasidagi to'qnashuvlar natijasida ko'plab davlatlarga nisbatan turli shakldagi iqtisodiy sanksiyalar joriy etilmoqda. Bunday choralar nafaqat bevosita sanksiya nishoniga aylangan davlatlarga, balki ular bilan iqtisodiy aloqada bo'lgan uchinchi tomon mamlakatlar eksport-import munosabatlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston ham bu jarayondan chetda emas.

Mamlakatimiz jadal tarzda tashqi savdoni rivojlantirmoqda. Eksport hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq xalqaro sanksiyalar muhitida eksport operatsiyalarining huquqiy xavfsizligini ta'minlash dolzarb vazifaga aylandi. Xususan, eksport qilinayotgan mahsulot sanksiyalangan davlat orqali tranzit qilinishi, sanksiyaga uchragan tashkilotlar bilan vositachilik munosabatlari, xorijiy banklar tomonidan to'lovlarning blokdanishi kabi holatlar eksportchilarga salbiy oqibatlar keltirib chiqarmoqda. Shu bois sanksiyalar risklarini yengillashtirish va eksport faoliyatini qonuniy himoya qilish uchun kompleks huquqiy mexanizmlar zarur.

**Kontragentlar bilan ishlashda huquqiy ehtiyotkorlik (due diligence)** alohida ahamiyatga ega. Har bir eksport bitimidan avval xorijiy xaridor yoki vositachi tashkilotning sanksiyaviy maqomi aniqlanishi shart. OFAC (AQSh), Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, BMT va boshqa yirik tuzilmalar tomonidan tuzilgan “SDN” (Specially Designated Nationals) yoki “Consolidated Sanctions List” ro'yxatlari muntazam tekshirilib borilishi lozim. Aks holda, bevosita emas, bilvosita aloqadorlik ham eksportchining xalqaro reputatsiyasiga jiddiy putur yetkazadi.

Bitim tuzishda **“Sanctions Clause”** — sanksiyalar holatida majburiyatlardan voz kechish imkonini beruvchi bandni kiritish muhimdir. Ushbu shartnoma bandi sanksiyalar sababli bitimning bajarilmasligi holatida eksportchini arbitraj yoki xalqaro sudlarda himoya qilishga xizmat qiladi. Xususan, bitimni tuzayotgan tomonlar, yuk yetkazib berish yo'nalishlari, to'lov tizimi va tovar kelib chiqishi kabi barcha parametrlar sanksiyalar monitoringidan o'tgan bo'lishi kerak.

**Bank kafolatlari (L/C, SBLC) va eksport kredit sug'urtasi** vositalaridan foydalanish ham xavflarni kamaytirish uchun samarali huquqiy choradir. Xususan, eksport shartnomasida bank kafolatlari orqali to'lovlar kafolatlanadi, shart bajarilmasa, banklar o'z zimmasidagi to'lovni amalga oshiradi. Bu holatda xalqaro banklar bilan ishlashda "Correspondent Banking Risk"lar, sanksiyalar monitoringi tizimining mavjudligi, "screening" va "flagging" amaliyotlariga e'tibor qaratish zarur.

**Transport-logistika va re-eksport xavflari** ham sanksiyalar kontekstida jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Masalan, eksport tovari Yevropa Ittifoqi orqali Rossiyaga re-eksport qilinadigan bo'lsa, bu O'zbekiston eksportchisining bilmasdan sanksiyani buzgan hisoblanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois eksportchi yukni tashish zanjirida ishtirok etayotgan har bir bo'g'inni, shu jumladan ekspeditor, logistika kompaniyalari va tranzit davlatlarni ham tekshirishi, kerak bo'lsa, ularning sanksiyalar siyosatini huquqshunoslar yordami bilan tahlil qilishi kerak.

**Xalqaro arbitraj va nizolarni hal qilish mexanizmlari** — eksportchining huquqiy himoyasi uchun so'nggi chora hisoblanadi. Shartnomada arbitraj yurisdiksiyasi, qo'llaniladigan huquq, nizolarni ko'rib chiqish tartibi aniq belgilanishi kerak. O'zbekiston Respublikasi xalqaro arbitraj organlarini tan olish va ular bilan hamkorlik qilish borasida ko'plab konvensiyalarga a'zo. Bu esa eksportchilar uchun huquqiy himoya doirasini kengaytiradi.

Shuningdek, **davlat tomonidan eksportchilarni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni** takomillashtirish zarur. Tashqi savdo organlari, eksportni rivojlantirish agentliklari sanksiyalar bilan bog'liq huquqiy maslahatlar, xalqaro standartlarga muvofiq namunaviy shartnomalar, compliance metodikalari bo'yicha amaliy yordam ko'rsatishi lozim. Shuningdek, eksportga ixtisoslashgan yuristlar ishtirokida "Sanksiyalar bo'yicha tezkor yuridik yordam platformasi" yaratilsa, eksporterlar o'z xavf darajasini mustaqil baholay oladilar.

### **Xulosa**

Xalqaro sanksiyalar bugungi tashqi savdo amaliyotida yirik huquqiy xatar manbai sifatida shakllanmoqda. Eksportchilar ularni chetlab o'tish emas, balki puxta huquqiy rejalashtirish va ehtiyotkorlik asosida o'z faoliyatini himoya qilishi kerak. Shartnomalardagi maxsus bandlar, bank kafolatlari, kontragent tahlili, davlat ko'magiga tayangan holda eksport faoliyatini sanksiyalardan himoya qilish O'zbekiston tashqi iqtisodiyotining barqarorligi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

### **References:**

#### **Используемая литература:**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni.
2. OFAC Sanctions Programs and Information – [www.treasury.gov/ofac](http://www.treasury.gov/ofac)
3. FATF Recommendations – [www.fatf-gafi.org](http://www.fatf-gafi.org)
4. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration.
5. ICC Model Contracts and Sanctions Clauses.
6. ACAMS Global Sanctions Guide (2024). [www.acams.org](http://www.acams.org)
7. World-Check Risk Intelligence Platform – [www.refinitiv.com](http://www.refinitiv.com)
8. Uzbekinvest – Eksport kredit sug'urtasi tizimi – [www.uzbekinvest.uz](http://www.uzbekinvest.uz)